



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 386-390 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BANKLARDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR: NAZARIY ASOSLAR VA PRINSIPLAR



Jabborov Olchinbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedasi tayanch doktoranti,
olchinbekjabborov99@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha banklarda moliyaviy instrumentlar hisobining nazariy asoslari va asosiy prinsiplari olib berilgan. Mavzuga taaluqli bo'lgan xalqaro buxgalteriya bo'yicha moliyaviy instrumentlarga oid ta'riflar, moliyaviy instrumentlarning tan olinishi, uning Respublika Bank sektorida tutgan o'rni hamda xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy instrumentlar, IFRS 9, aksiya, obligatsiya, investitsiya.

Аннотация: В данной статье раскрыты теоретические основы и основные принципы учета финансовых инструментов в банках в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО). Рассмотрены определения, касающиеся финансовых инструментов в международной бухгалтерии, признание финансовых инструментов, их место в банковском секторе Республики, а также приведены выводы и рекомендации.

Ключевые слова: Финансовые инструменты, МСФО 9, акции, облигации, инвестиции.

Annotation: The article explores the theoretical foundations and key principles of accounting for financial instruments in banks according to the International Financial Reporting Standards (IFRS). It includes definitions related to financial instruments in international accounting, the recognition of financial instruments, their role in the banking sector of the Republic, as well as conclusions and recommendations

Key words: Financial instruments, IFRS, share capital, bond, investment.

KIRISH

O'zbekistonda moliyaviy tizimning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda banklar asosiy o'rinni tutadi. Banklar iqtisodiy faoliyatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, kreditlash, investitsiyalarini boshqarish va joriy operatsiyalarini amalga oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarini samarali boshqarish va to'g'ri hisobga olish uchun moliyaviy instrumentlar hisobini aniq tashkil etish zarurdir.

Moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirish, ayniqsa, zamonaviy banklarda xalqaro va milliy standartlarga muvofiq ravishda tashkil etilishi kerak. Banklarda moliyaviy instrumentlar hisobini to'g'ri tashkil etish nafaqat moliyaviy risklarni boshqarishga yordam beradi, balki bankning moliyaviy holatini aniq aks ettirish va uning operatsiyalarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, tanlangan tadqiqot mavzusni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga darajada xizmat qiladi[1,2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda har qanday yangi hisob tizimi tashkil etilayotganda hisob tizimi bo'yicha konseptual asos shakllantirilib, shu asosda hisob standartlari ishlab chiqiladi. Konseptual asos moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun mo'ljallangan nazariy tamoyillar yig'indisi hisoblanadi. Ushbu nazariy tamoyillar yangi hisob standartlarini ishlab chiqishga va amaldagi standartlarni yanada takomillashtirishga hizmat qiladi. MHXS Kengashi Konseptual asosni 1989 yilda ishlab chiqgan va 2010 yilda o'zgartirishlar kiritilgan. 2018 yilda yangi tahriri ishlab chiqilgan va rasmiy taqdim etgan.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashi (International Accounting Standards Board) tomonidan e'lon qilingan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asos"ga muvofiq moliyaviy instrumentlarga quyidagicha ta'rif berilgan[3]:

Moliyaviy instrumentlar ikki tomon o'rtasida shartnomaga shaklida bo'lib, bir tomon uchun moliyaviy aktiv va boshqa tomon uchun moliyaviy majburiyat hamda aksiyaviy va qarz instrumentni yuzaga keltiradi, degan asosiy g'oyani ta'kidlaydi.

Moliyaviy instrumentlar hisobining nazariy asoslari quyidagi prinsiplar va yondashuvlarga asoslanadi:

- *Moliyaviy instrumentlarni tan olish*

Moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil etishning dastlabki bosqichi ularni tan olishdir. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarini to'g'ri hisobga olish va tasniflash muhimdir. Moliyaviy instrumentlar, bankning kelajakdagি moliyaviy oqimlariga egalik qilish huquqini ta'minlaydigan aktivlar va bankning majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy instrumentlarni tan olishda xalqaro moliyaviy hisobga olish standartlari (masalan, IFRS 9) va milliy hisobga olish standartlari muhim ahamiyatga ega. IFRS 9 standarti moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni tan olish, o'zgarishlarni hisobga olish va baholashni talab qiladi. Shuningdek, bu standart banklarga moliyaviy instrumentlarning turli xil risklarini to'g'ri baholash imkonini beradi.

- *Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobi*

Banklarning moliyaviy operatsiyalari ikki asosiy guruhgaga ajratilishi mumkin: aktivlar va majburiyatlar.

Banklarning moliyaviy operatsiyalari ikki asosiy guruhgaga ajratilishi mumkin: aktivlar va majburiyatlar.

- **Moliyaviy aktivlar:** Banklar o'z aktivlarini turli shakllarda tan oladi, masalan, kreditlar, depozitlar, qimmatli qog'ozlar va boshqa investitsiyalar. Aktivlarni to'g'ri hisoblashda ularning qiymatini aniqlash, amortizatsiya va risklarni hisobga olish zarur.
- **Moliyaviy majburiyatlar:** Banklar tomonidan amalga oshirilgan majburiyatlar, masalan, mijozlarga berilgan kreditlar, depozitlar, qarzlar va boshqa moliyaviy majburiyatlar hisobga olinadi. Ularning ham qiymatini va kelajakdagi to'lovlarini aniq hisoblash zarur. Bu jarayonlar bankning moliyaviy holatini aniq va ishchonchli aks ettirishga yordam beradi.

Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini tashkil etishda risklarni boshqarish ham juda muhimdir. Moliyaviy aktivlar va majburiyatlarning har biri o'ziga xos xavflar va rentabellik darajalariga ega bo'lib, ular bankning umumiy moliyaviy holatiga ta'sir qiladi.

- *Risklarni boshqarish va moliyaviy hisob*

Banklarda moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirishda risklarni boshqarish juda muhim ahamiyatga ega. Banklar o'z faoliyatida bir nechta turdag'i risklarga duch keladilar:

- **Kredit riski:** Banklar tomonidan berilgan kreditlar bilan bog'liq bo'lган riskdir. Bu risk, agar qarzdor kreditni qaytara olmasa, bankning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- **Bozor riski:** Banklar o'z faoliyatida turli xil investitsiyalarni amalga oshiradilar. Bu investitsiyalar bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga bog'liq bo'lib, o'zgarishlar bankning rentabelligiga ta'sir qiladi.
- **Likvidlik riski:** Banklar uchun likvidlik, ya'ni qisqa muddatda moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyati muhimdir. Likvidlik riski banklar tomonidan to'liq hisobga olinishi va boshqarilishi kerak.

Banklar o'z faoliyatida risklarni boshqarish uchun moliyaviy instrumentlar hisobini samarali tashkil etishlari, shuningdek, risklarni minimallashtirish va boshqarish usullarini ishlab chiqishlari zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekpertlar baxosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Moliyaviy instrumentlar — bu iqtisodiy sub'ektlar (investorlar, kompaniyalar, davlatlar va boshqalar) o'rtasida moliyaviy resurslarni almashish, kapitalni jalb qilish yoki risklarni boshqarish uchun ishlatiladigan huquqiy va moliyaviy vositalardir. Ularning moliya va iqtisodiyotdagi asosiy roli moliyaviy bozorlarni samarali va barqaror ishlashini ta'minlash, investorlar uchun daromad olish imkoniyatlarini yaratish, va iqtisodiyotdagi resurslarni samarali taqsimlashdir. Ular, shuningdek, risklarni boshqarish va bozorning likvidligini oshirishda muhim rol o'yнaydi.

Moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil etishda quyidagi asosiy prinsiplar amal qiladi:

- ❖ **Shaffoflik va Hisobdorlik.** Moliyaviy instrumentlar hisobining shaffofligi bankning moliyaviy holatini aniq va tushunarli ko'rsatishga yordam beradi. Banklar moliyaviy operatsiyalarni hisobga olishda va hisobotlarni taqdim etishda to'liq va aniq bo'lislari kerak. Bu, o'z navbatida, bankning mijozlar va investorlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi.
- ❖ **Tasniflash va Baholash.** Moliyaviy instrumentlar hisobida tasniflash va baholash jarayoni ham muhim o'rн tutadi. Banklar turli moliyaviy instrumentlarni, ularning risk darajalariga, rentabelliklariga va muddatlariga qarab tasniflashlari kerak. Masalan, kreditlar qisqa muddatli va uzoq muddatli, xavfli va xavfsiz deb tasniflanishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalarni baholashda esa, ularning bozor qiymati, rentabellik darajasi va likvidligi hisobga olinadi.
- ❖ **Xalqaro hisobga standartlariga amal qilish.** Moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil etishda xalqaro hisobga olish standartlariga amal qilish muhimdir. IFRS 9 va IFRS 7 kabi standartlar banklar uchun moliyaviy instrumentlar hisobini amalga oshirishda asosiy qo'llaniladigan hujjatlardir. IFRS 9 standarti moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni tan olish va ularning bahosini aniqlashda banklarga aniq yo'l-yo'riq ko'rsatadi. IFRS 7 esa, moliyaviy risklarni aniqlash, hisobotlarda to'liq aks ettirish va risklarni boshqarish tartib-qoidalarini belgilaydi.
- ❖ **Ko'rsatuvchi indikatorlar va tahlil.** Moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil etishda ko'rsatuvchi indikatorlar va moliyaviy tahlil jarayoni muhimdir. Banklar o'zlarining moliyaviy holatini baholash uchun turli ko'rsatkichlarni ishlatadilar, masalan, rentabellik, qarz ning aktivlarga nisbatli, likvidlik koeffitsienti va boshqalar. Bu ko'rsatkichlar bankning moliyaviy barqarorligini va samaradorligini tahlil qilishga yordam beradi.

Moliyaviy instrumentlar odatda pul mablag'larini ko'chirish, investitsiya qilish yoki risklarni boshqarish maqsadida ishlatiladi. Moliyaviy instrumentlar turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan:

1. Qimmatli qog'ozlar:

- Aktsiyalar – kompaniyalarning egalik huquqini bildiruvchi qimmatli qog'ozlar.
- Obligatsiyalar – qarz olish huquqini bildiruvchi va belgilangan foiz to'lashni kafolatlaydigan qimmatli qog'ozlar.

2. Derivativlar:

- Foydali opsiyolar – ma'lum bir qiymatdagi aktivni kelajakda sotib olish yoki sotish huquqi (lekin majburiyat emas).
- Foydali kelishuvlar (futures) – aktivning kelajakdagi narxini oldindan belgilash bo'yicha shartnomalar.

3. Pul bozoridagi instrumentlar:

- Depozit sertifikatlari – qisqa muddatli bank depozitlari.
- Repolik shartnomalar – qisqa muddatli kredit yoki qarz olish shartnomalari.

Moliyaviy instrumentlar investorlar va moliyaviy tashkilotlarga aktivlarni boshqarishda yordam beradi, shuningdek, turli risklarni o'zaro taqsimlash, pul oqimlarini nazorat qilish va foya olish imkoniyatlarini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari banklar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlar va yondashuvlar banklarda moliyaviy instrumentlar hisobini to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi. Shuningdek, risklarni boshqarish, xalqaro standartlarga muvofiqlik, shaffoflik va tasniflash prinsiplariga amal qilish bank tizimining samaradorligini oshiradi. Kelajakda banklarda moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirish uchun yangi metodologiyalarni joriy etish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarur.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. // ACCA . IFRS/IAS., 2019 y.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3400.

5. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

6. Kozimjonov A. Problems with Accounting of Borrowing Costs Capitalized in Compliance with the IFRS and the Ways to Solve them // The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems // 2021/12/15. 366-369-p.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

